

MIRZO ULUG‘BEK DAVRIDA MOVAROUNNAHRDA YER-SUV ISLOHOTLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI

Olimova Iroda

Buxoro davlat universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Yuldosheva Bibirajab

Buxoro davlat universiteti dotsenti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada XV asrda Movarounnahrda Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida amalga oshirilgan yer-suv islohotlari va ularning mamlakat iqtisodiy hayotidagi o‘rni tahlil etilgan. Mirzo Ulug‘bekning siyosiy va iqtisodiy faoliyati o‘zaro uyg‘unlikda olib borilgani, sug‘orish tizimining tiklanishi, yangi yerlarning o‘zlashtirilishi va qishloq xo‘jaligi infratuzilmasining rivojlanishi ko‘rsatib berilgan.

Maqolada, shuningdek, yer egaligi shakllari, suyg‘ol va tarxon tizimining saqlanishi, dehqonlar va muzoriylarning ijtimoiy-iqtisodiy o‘rni yoritilgan. Soliq tizimining adolatli tashkil etilgani, xiroj, ushr, zakon kabi soliq turlari va begor mehnat majburiyatlari haqida ilmiy tahlil berilgan. Mirzo Ulug‘bekning tangalar islohoti va uning savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishdagi roli ham o‘rganilgan. Umuman, maqolada Mirzo Ulug‘bek davrida agrar va iqtisodiy siyosatning Movarounnahr barqarorligi va farovonligidagi o‘rni tarixiy manbalar asosida chuqur yoritib berilgan.

***Kalit so‘zlar** Ulug‘bek, Badoye‘ul-vaqoe, Somonjuq, Hofizi Abro‘, Bog‘i Chinor, Zafarnoma, yer egaligi, soliq, muxassilona, fulus.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются земельно-водные реформы, проведённые в Мавераннахре в период правления Мирзо Улугбека в XV веке, и их значение в экономической жизни государства. Освещена взаимосвязь политической и экономической деятельности Улугбека, анализируются мероприятия по восстановлению ирригационной системы, освоению новых земель и развитию аграрной инфраструктуры.

Особое внимание уделено формам земельной собственности, практике пожалования земель в виде суйургалов и тарханов, а также социальной и экономической роли дехкан и музариёв. Проведен анализ налоговой системы того времени, включая виды налогов — хирож, уshr, закон — и обязательства по бесплатному труду (бегар). В статье также рассматривается реформа денежного обращения, проведённая Мирзо Улугбеком, и её влияние на развитие торгово-экономических связей. В целом исследование раскрывает роль

аграрной и экономической политики Улугбека в укреплении стабильности и процветания Мавераннахр на основе анализа исторических источников.

Ключевые слова Улугбек, Бадое ул-вакой, Соманджук, Хафиз Абро, Боги Чинор, Зафарнама, землевладение, налог, мухассилона, фулуси.

ABSTRACT

This article examines the land and water reforms implemented in Transoxiana during the reign of Mirzo Ulugh Beg in the 15th century and their significance for the economic life of the state. The study highlights the interconnection between Ulugh Beg's political and economic activities, focusing on the restoration of irrigation systems, the reclamation of new agricultural lands, and the development of agrarian infrastructure.

Special attention is given to the forms of land ownership, the practice of granting lands as suyurgal and tarkhan, and the socio-economic role of peasants (dehqans) and tenant farmers (muzariy). The article also analyzes the tax system of the period, including various types of taxes such as kharaj, ushr, zakat, and obligations for forced labor (begar). Furthermore, the paper explores Mirzo Ulugh Beg's monetary reforms, particularly the introduction of new copper coins ("fulusiy"), and their impact on the growth of trade and economic relations. Overall, the study demonstrates how Ulugh Beg's agrarian and economic policies contributed to the stability and prosperity of Transoxiana, based on historical sources.

Key words Ulugh Beg, Badoe ul-vaqoe, Somonjuq, Hafizi Abru, Bogi Chinar, Zafarnama, land ownership, tax, mukhassilona, fulus.

KIRISH

Movarounnahr tarixida XV asr, xususan, Mirzo Ulug'bek davri o'ziga xos siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar bilan ajralib turadi. Mirzo Ulug'bek (1394–1449) O'rta Osiyo tarixida nafaqat yirik davlat arbobi, balki olamshumul falakshunos olim sifatida ham alohida o'rin tutadi. To'g'ri, tarixiy manbalarda uning ilmiy faoliyati siyosiy faoliyatiga nisbatan ko'proq muvaffaqiyatli deb baholangan bo'lsa-da, Mirzo Ulug'bek o'zining qariyb qirq yillik hukmronligi davomida Movarounnahrda siyosiy barqarorlikni saqlash, iqtisodiy hayotni mustahkamlash va agrar sohani rivojlantirish borasida sezilarli ishlarni amalga oshirdi.

Tarixchi Zayniddin Vosifiy o'zining "Badoye' ul-vaqoe" ("Nodir voqealar") asarida Ulug'bekni "taxtda undan adolatliroq va bilimdonroq podshoh o'tirmagan" [6:22], deb ta'riflaydi. Bu davrda Movarounnahrda obodonchilik ishlari, sug'orish tarmoqlarining qayta tiklanishi, yer-suv resurslaridan samarali foydalanish hamda qishloq xo'jaligi va savdo-sotiq faoliyatining rivojlanishiga alohida e'tibor qaratildi.

Mirzo Ulugʻbek, bobosi Amir Temur anʼanalarini davom ettirib, ilm-fan va iqtisodiyotni birgalikda rivojlantirishni maqsad qilgan hukmdor sifatida, nafaqat siyosiy kuchni mustahkamlash, balki dehqonchilikni qoʻllab-quvvatlash, suv inshootlarini barpo etish va yangi ekin maydonlarini oʻzlashtirish borasida ham katta tashabbus koʻrsatdi.

Mazkur maqolada Mirzo Ulugʻbek davrida Movarounnahrda amalga oshirilgan yer-suv islohotlari, ularning mamlakat iqtisodiy hayotidagi oʻrni va ahamiyati, shuningdek, soliqlar va moliya tizimiga kiritilgan oʻzgarishlar tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mirzo Ulugʻbek Movarounnahr tarixida oʻzini yirik siyosiy arbob va dono hukmdor sifatida namoyon eta oldi. Uning hukmronligi davrida siyosiy barqarorlikni saqlash bilan birga, iqtisodiy asoslar mustahkamlashga, agrar sohani rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratildi. Ayniqsa, qishloq xoʻjaligining asosiy tayanchi boʻlgan sugʻorish tizimining tiklanishi va obodonchilik ishlarining jadallashuvi Ulugʻbek siyosatining asosiy ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻldi.

Tarixchi Zayniddin Vosifiy oʻzining "Badoye' ul-vaqoe" ("Nodir voqealar") asarida Mirzo Ulugʻbekni "taxtda undan adolatliroq va bilimdonroq podshoh oʻtirmagan" [6:22], deya taʼriflaydi. Bu taʼrif faqat ilmiy faoliyatga emas, balki Ulugʻbekning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga qoʻshgan hissasiga ham ishora qiladi.

Mirzo Ulugʻbek davrida XIII asrda moʻgʻullar tomonidan vayron qilingan Buxoro vohasining sugʻorish tizimi qayta tiklandi. Ayniqsa, Buxoro vohasining janubi-sharqiy chegarasida joylashgan Somonjuq dashtiga suv chiqarilishi natijasida, ilgari qarovsiz yotgan yerlar oʻzlashtirildi va dehqonchilik uchun yangi sharoitlar yaratildi [2:340]. Bu holat mamlakatda oziq-ovqat bazasini mustahkamlashga xizmat qilgan boʻlsa, boshqa tomondan sugʻoriladigan yerlar hajmining oshishi davlat xazinasi uchun barqaror daromad manbalarini kengaytirgan.

Movarounnahr mintaqasi uchun Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo va Murgʻob kabi daryolar hayot manbai boʻlib xizmat qilgan. Ushbu daryolardan suv chiqarish uchun turli kanallar, ariqlar, tazarlar, chigʻirlar va suv koʻtarish inshootlari qurilgan. Bu infratuzilma faqat agrar sohani rivojlantirish bilan cheklanmay, balki iqtisodiy aloqalarni, savdo yoʻllarini va shaharlararo aloqalarni mustahkamlashda ham muhim rol oʻynagan.

Shuningdek, oʻsha davr iqlimi haqida tarixiy manbalarda bildirilgan maʼlumotlar ham sugʻorish tizimi samaradorligini tushuntirishda muhim oʻrin tutadi.

Hofizi Abro' "Geografiya" asarida yog'ingarchilik yillari ko'pligi va Ko'hak suvining Amudaryoga qo'shilganini qayd etadi. Bu tabiiy omillar o'z navbatida Ulug'bek tashabbusi bilan amalga oshirilgan agrar siyosatni yanada samarali qilishga zamin yaratgan.

Mirzo Ulug'bek obodonchilik sohasida ham bobosi Amir Temur an'alarini davom ettirib, Samarqand va uning atrofini chiroyli bog'lar bilan bezatishga alohida e'tibor qaratdi. Abdurazzoq Samarqandiy guvohlik berganidek, Bog'i Dilkusho va Bog'i Chinor singari bog'lar Ulug'bek tomonidan saqlab qolingan va diplomatik qabul marosimlarida faol foydalanilgan [7:381].

Bundan tashqari, Ulug'bek o'z tashabbusi bilan Samarqand atrofida Bog'i Maydon kabi yangi bog'larni barpo ettirdi. "Boburnoma" va Hofizi Abro'ning "Geografiya" asarlarida eslatilgan ushbu bog'lar, nafaqat estetik go'zallik manbai, balki shaharning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida ham muhim rol o'ynagan. Bog'lar atrofida mehnat resurslari jamlangan, hunarmandchilik va savdo-sotiq faoliyati rivojlangan.

Bunday keng ko'lamli obodonchilik va sug'orish tizimining tiklanishi mamlakat iqtisodiy barqarorligini oshirib, aholi turmush darajasini yaxshilashga va markaziy hokimiyat kuchayishiga xizmat qildi. Shunday qilib, Mirzo Ulug'bekning agrar siyosati o'z zamonasining iqtisodiy-siyosiy sharoitlariga moslashgan holda ilg'or va amaliy xarakterga ega bo'lib, Movarounnahrning barqaror rivojlanishiga zamin yaratdi.

Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Movarounnahrda Temuriylar saltanatining agrar tizimi davom ettirildi va takomillashtirildi. O'sha davrda yer egaligi shakllari murakkab va ijtimoiy-siyosiy tuzilma bilan chambarchas bog'liq edi. Ulug'bek o'z siyosatida yer-suv munosabatlarini tartibga solish va dehqonlarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratdi.

Movarounnahrda yer egaligi asosan to'rt shaklda mavjud edi: mulki devoniy — davlat tasarrufidagi yerlar, mulk — shaxsiy mulk tarzidagi yerlar, mulki vaqf — diniy muassasalarga tegishli yerlar va mulki jamoa — dehqon jamoalari ixtiyoridagi yerlar [2:340]. Davlat yerlarining asosiy qismi bevosita hukmdor ixtiyorida bo'lib, ular asosiy iqtisodiy resurs sifatida xizmat qilgan.

Yer egaligi tizimida "dehqonlar" — yer egalari va "muzoriylar" — yerga ishlov beruvchilar o'rtasida aniq tafovut mavjud edi. Muzoriylar esa o'z faoliyatiga qarab to'rtta toifaga bo'lingan: a) davlat yerlarida ishlovchi muzoriylar, b) boy zamindorlar yerlarida ishlovchi muzoriylar, c) o'z yerida ishlovchi muzoriylar va d) vaqf yerlarida ishlovchi muzoriylar. Bu tasnif, o'z navbatida, yer egaligi tizimidagi ijtimoiy qatlamlarning shakllanishiga olib kelgan [2:340].

Shuningdek, yerlarni in'om qilishning "suyurg'ol" va "tarxon" kabi shakllari ham mavjud edi. Bu tizim ko'proq xizmatlari uchun mukofot sifatida qo'llanilgan. Suyurg'ol institutining ildizlari mo'g'ullar davriga borib taqaladi, ammo Temuriylar, jumladan Mirzo Ulug'bek davrida ham bu an'ana davom ettirildi. Xususan, 1403-yilda Amir Temur O'rta Osiyo va Yaqin Sharqdagi yirik hududlarni o'z farzand va nabiralariiga suyurg'ol tarzida taqsimlaganida, Toshkentdan to Xitoy chegarasigacha bo'lgan hududlar Ulug'bek Mirzoga berilgan edi [4:174].

Biroq, Mirzo Ulug'bek siyosati bu borada o'ziga xos jihatlarga ega edi. Akademik V.V. Bartoldning ta'kidlashicha, Ulug'bek umumiy siyosatda "yumshoq siyosat" olib borgan, zodagonlar va yirik mansabdorlarga nisbatan cheklovlarni kuchaytirgan, aksincha, mehnatkash aholi — dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlarni ko'proq qo'llab-quvvatlagan [3:132–134]. Ayniqsa, Ulug'bek suyurg'ol tarzida yer taqsimotini minimal darajada saqlagan va asosan davlat yerlarini aholi manfaatlariga xizmat qiladigan tarzda boshqargan.

Bu siyosat Movarounnahrda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va ichki siyosiy osoyishtalikni saqlashda muhim rol o'ynadi. Natijada, dehqonlarning yerga egalik qilishdagi huquqlari nisbatan yaxshilandi, mehnat unumdorligi ortdi va mamlakat ichki iqtisodiy salohiyati oshdi.

Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri mamlakatda barqaror va adolatli soliq tizimini tashkil etish bo'ldi. Ulug'bek yaxshi anglaganki, davlatning mustahkamligi va farovonligi, avvalo, aholi mehnatining samaradorligi va soliq tushumlarining barqarorligiga bog'liq.

Movarounnahrda soliqlar tizimi murakkab va tabaqalashtirilgan ko'rinishga ega edi. Dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar va hunarmandlar kabi ishlab chiqaruvchi qatlam soliq to'lovchilar sifatida asosiy moliyaviy bazani tashkil etdi. Temuriylar an'analariiga muvofiq, Mirzo Ulug'bek davrida ham yerga bog'liq asosiy soliq — xiroj saqlanib qoldi. Xiroj hosilga qarab natura yoki pul shaklida olinardi. Hosil unumdorligiga qarab obikor yerlardan xiroj hosilning 1/3 qismi (taxminan 33%), lalmikor yerlardan esa hosilning 1/6 yoki 1/8 qismi (ya'ni 16,5–12,5%) miqdorida belgilangan edi [2:372–385].

Bundan tashqari, xususiy yer egalaridan ushr solig'i olinib, hosilning 1/10 qismi (10%) miqdorida belgilangan. Chorvadorlardan esa "zakon" deb atalgan maxsus soliq olinib, u chorva boshidan 1/40 ulush (2,5%) miqdorida undirilgan.

Mirzo Ulug'bek davrida soliqlar faqat xiroj va ushr bilan cheklanib qolmay, turli tarmoqlar va aholi faoliyatining boshqa sohalaridan ham undirilardi. Jumladan:

- Avorizot va javajjuhoti xorijiy — favqulodda holatlarda olinadigan soliq,
- Dudang — hosilning 2/6 qismi miqdorida olinadigan soliq,

- Mol sardarax — bogʻ va daraxtzorlardan olinadigan soliq,
- Oʻloq va suvloq — yaylov va suv manbalaridan foydalanish uchun olinadigan soliq,

- Tamgʻa va boj — savdo-sotiqdan olinadigan boj soliqlari [2:372–385].

Soliqlarning yigʻilishi uchun "muxassilona" (soliq yigʻuvchilar) tayinlangan boʻlib, ular bevosita davlat nomidan soliqlarni yigʻgan. Soliq stavkalarini belgilovchi shaxslar esa "sohib jamona"lar deb atalgan [8:105].

Bundan tashqari, aholidan mehnat majburiyati — "begor" shaklida xizmat ham talab qilingan. Begor majburiyatida aholining oʻz ish qurollari va oziq-ovqat zahiralari bilan kelib, saroylar, madrasalar, masjidlar, qalʼalar qurilishi va sugʻorish inshootlarini tiklash kabi ishlarni bajarish majburiyati mavjud edi.

Mirzo Ulugʻbek iqtisodiy siyosatida yana bir muhim oʻzgarish — tangalar islohoti edi. 1428–1429-yillarda u "fulusiy" deb nomlangan mis chaqalar islohotini amalga oshirib, yangidan tanga zarb ettirdi. Ushbu tangalarda "Hazrat Koʻragon himmatidin Ulugʻbek Koʻragon soʻzim..." degan yozuv bitilgan edi. Tarixchilarning fikricha, Mirzo Ulugʻbekdan soʻng hech bir Temuriy hukmdor Amir Temurning ismini oʻz tangalarida qayta tilga olmagan [9:64].

Bu tanga islohoti savdo aloqalarini jonlantirib, mahalliy hunarmandlar va savdogarlar uchun iqtisodiy muhitni yaxshilab berdi. Yangi pullar, xususan, Samarqand, Xorazm va Hirot kabi markazlarda erkin aylanib, bozor iqtisodiyotining jonlanishiga xizmat qildi.

Mirzo Ulugʻbek oʻzining iqtisodiy siyosatida adolat mezonlarini ustun qoʻydi. U soliqlarni ijtimoiy tabaqalar oʻrtasida adolatli taqsimlashga harakat qildi va aholining eng zaif qatlamlari — dehqonlar va mehnatkashlarning iqtisodiy manfaatlarini muhofaza qildi. Shunday qilib, Mirzo Ulugʻbek davrida iqtisodiy islohotlar mamlakat ichki barqarorligini taʼminlash va Movarounnahrni kuchli agrar va savdo markaziga aylantirishga xizmat qildi.

XULOSA

Mirzo Ulugʻbek davri Movarounnahr tarixida siyosiy barqarorlik va iqtisodiy oʻsishning oʻziga xos bosqichi sifatida alohida oʻrin tutadi. U nafaqat ilm-fan va madaniyat rivojiga hissa qoʻshgan buyuk olim, balki oʻz davri uchun puxta iqtisodiy siyosat yuritgan adolatli hukmdor sifatida ham tarixda chuqur iz qoldirdi.

Ulugʻbek zamonida amalga oshirilgan yer-suv islohotlari Movarounnahrning agrar infratuzilmasini tiklash, sugʻoriladigan maydonlarni kengaytirish va yangi ekin yerlari oʻzlashtirilishini taʼminladi. Buxoro vohasida suv inshootlarining qayta qurilishi va Somonjuq dashtiga suv chiqarilishi orqali dehqonchilik uchun yangi

imkoniyatlar yaratildi. Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon kabi asosiy suv manbalaridan samarali foydalanish tizimi rivojlantirildi.

Yer egaligi va yerni boshqarish siyosatida esa Ulug‘bek mulki devoniy, mulk, mulki vaqf va mulki jamoa shakllarini saqlab qolgan holda, davlat manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘ydi. Suyurg‘ol va tarxon kabi yer berish tizimlari orqali siyosiy sadoqat va xizmatlar rag‘batlantirilgan bo‘lsa-da, Ulug‘bek bu jarayonni mehnatkash aholi manfaatlariga ziddiyatli bo‘lmaydigan tarzda boshqardi. V.V. Bartold ta‘kidlaganidek, Ulug‘bek o‘z siyosatida quyi tabaqalarni — dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlarni qo‘llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat qaratdi.

Soliq tizimi ham adolatli asosda takomillashtirildi. Xiroj, ushr, zakon kabi asosiy soliqlar hosil va mulk darajasiga qarab belgilanib, aholining iqtisodiy ahvolini yengillashtirish ko‘zda tutilgan edi. Begor kabi majburiy xizmat shakllari saqlangan bo‘lsa-da, ular davlat infratuzilmasini rivojlantirish va sug‘orish inshootlarini tiklashga qaratildi.

Mirzo Ulug‘bek amalga oshirgan pul islohoti — "fulusiy" chaqalar zarb qilish va yangi tangalarni muomalaga kiritish orqali savdo-sotiq aloqalarining jonlanishiga, hunarmandchilik va bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga xizmat qildi.

Umuman olganda, Mirzo Ulug‘bek davrida amalga oshirilgan yer-suv islohotlari va iqtisodiy choralar Movarounnahrda agrar sohaning rivojlanishiga, ichki iqtisodiy barqarorlikning ta‘minlanishiga va mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qildi. Ulug‘bekning adolat va ilmga asoslangan siyosati uning zamonasining poytaxti Samarqandni va butun Movarounnahrni o‘z davrining ilg‘or siyosiy-iqtisodiy markazlaridan biriga aylantirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Buriev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi. – Toshkent: 2017. – B. 361.
2. Sultonov F., Bozorboyev F. O‘rta asrlar tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B. 428.
3. Bartold V.V. Ulug‘bek va uning davri // Asarlar. 2-tom, 2-qism. – Moskva: 1964. – B. 134.
4. Rtveladze E.V. O‘zbekistonning tarixiy o‘tmishi. To‘ldirilgan 2-nashr. – Toshkent: “San’at jurnali” nashriyoti, 2009. – B. 174.
5. Keldiërov X.A., Sulaymonov E.S. Samarqand shahrining botanik tabiat yodgorliklari. – Samarqand: 2009. – B. 3.
6. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1994. – B. 22.

7. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai sa'dayn va majmai bahrayn. – Toshkent: 2008. – B. 632.
8. Sayfullaev, B. (2021, November). From the history of cultural relations between Uzbekistan and India. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 57-60).
9. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 292.
10. To'xtayev I. Amir Temur va Temuriylar davrida moliya va pul siyosati. – Toshkent: 2006. – B. 178.